

Diskursda Verbal Va Noverbal Vositalardan Foydalanish Imkoniyatlari

Saidova Mukhayyo Umedilloevna¹, Nadirkhanova Nozima Alisherovna²

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq jarayoni, unda tildan foydalanish, lingvopragmatika, nutq tabiati, diskursda verbal va noverbal vositalardan foydalanish imkoniyatlari xususida fikr-mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit soʻzlar: Til, lingvistik kanal, nutq jarayoni, nutq vaziyati, kommunikator, adresat.

Insonga dunyo haqidagi ma'lumotlarning aksariyati lingvistik kanal orqali keladi, shuning uchun inson ob'yektlar va narsalar dunyosiga qaraganda intellektual, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlar uchun yaratilgan tushunchalar dunyosida ko'proq yashaydi: ma'lumotlarning katta ulushi unga so'z orqali keladi va insonning jamiyatdagi muvaffaqiyati uning so'zni qanchalik to'g'ri so'zlashiga bog'liq bo'lib, hatto nutq madaniyati nuqtayi nazaridan ham emas, balki til sir-asrorlariga kirib borish qobiliyatiga bog'liq. Shaxs tomonidan yaratilgan matn inson tafakkurining harakatini aks ettiradi, fikrlash dinamikasini va til vositalaridan foydalangan holda uni taqdim etish usullarini qamrab olgan holda mumkin bo'lgan dunyolarni quradi.

Inson o'zining ruhiyati, kayfiyati, o'zgalarga va voqelikka munosabatini bevosita til, nutq orqali ifoda etadi. U ifodaning aniq, tushunarli, ta'sirchan bo'lishi uchun harakat qiladi. Shu ehtiyoj tufayli nutq jarayonida tildan foydalanishning turli usullari kashf etilgan.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning tilda inson omilini o'rganishga qaratilgan tadqiq usullari kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika, psixolingvistika, assotsiativ tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlarda namoyon bo'lmoqda. Xorij tilshunosligida bu yo'nalishlarda izlanishlar olib borgan N.Xomskiy, Ch.Osgud, J.Lakoff, I.Galperin, N.Karaulov, N.Jinkin, Y.Stepanov, A.Leontyev, A.Vejbitskaya, E.Kubryakova, V. Demyankov, V.Maslova, V.Belyaninlarning tadqiqotlari diqqatga sazovor. O'zbek tilshunosligida A.Nurmonov, N. Maxmudov, Sh. Safarov, E.Begmatov, A.Mamatov, M.Hakimov, S.Mo'minov, D.Xudayberganova, D.Lutfullaeva, Sh.Usmonova, S.Boymirzaeva, A.Rahimov, I.Azimova, N.Hoshimova va boshqalarning tadqiqotlarida til tizimi antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etilgan.³ Keyingi yillarda jahon tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi bir qator zamonaviy sohalar rivojlana boshladi. Lisoniy hodisalar, matn va uning ta'siri, nutqiy aktlar, adresant va adresat, nutqiy vaziyat kabi tushunchalarning mazmun mohiyati uning muloqot madaniyatiga ta'siri jahon va o'zbek tilshunoslari tomonidan turli kontekstda, asosan, badiiy asarlar misolida o'rganilgan,⁴ lisoniy hodisalar lingvostilistik⁵, sotsiolingvistik⁶ nuqtayi nazardan atroflicha tadqiq qilingan.

Yetakchi tilshunos olimlarning qayd etishlaricha, nutqiy muloqot o'nlab etnik (milliy), etnografik, ijtimoiy, tarixiy, etik-estetik, falsafiy - madaniy va jumladan, bir tarkibiy qism sifatida sof lingvistik (lisoniy) omillarning murakkab sistemasidir. Insoniy faoliyatning boshqa turlari ham (chunonchi,

¹ Associate Professor of Bukhara State University

² Master Student, Bukhara State University

³ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. -91 б.

⁴ Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri... dis. - Toshkent, 2011. - B. 94.

⁵ Qo'chqortoyev I. Abdulla Qahhorning frazeologik novatorligi: filol.fan.nomz....diss. avtoref. -T., 1975.

⁶ Yo'ldoshev M.M. Cho'lponning badiiy til mahorati: filol.fan.nomz....diss. avtoref. -T., 2000.



kiyinish, ishlash, o'qish, o'rganish, yaratish va hokazolar) mana shunday ko'p tarkibli sistemalardan iborat. Insonning faol shaxs (komogens) sifatidagi serqirra faoliyatini o'rganuvchi fan hozirgi kunda *kulturologiya* deb nomlanmoqda.⁷ *Diskursologiya* kabi murakkab butunlik mana shu *kulturologiya*ning bir tarmog'i sifatida qaraladi. Nutq jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang-barang (chunonchi: ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va h.k.) ijtimoiy va tabiiy faoliyati bo'lganligi sababli, pragmatikada nutqiy faoliyat insoniy faoliyatning qolgan o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Shuning uchun struktur (sistem) tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o'rgansa, pragmatika diskurs (muloqot, o'zaro-fikr almashuv, kommunikatsiya, aloqa- aralashuv, so'zlashuv) tizimini o'rganadi. Oddiy qilib aytganda, nutqiy muloqotni yaxlit bir tizim sifatida - bu jarayonning barcha lisoniy va nolisoniy omillarining bilan uzviy bog'liqlikda, hamkorlikda o'rganuvchi fandır. Shuning o'zi pragmatika nutq va axloqiy, insoniy hatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan o'nlab fanlarning kesishish nuqtasida turishidan darak bermoqda. Pragmatika struktur tilshunoslik, stilistika, nutq madaniyati, poetika va lingvopoetika, psixolingvistika, etika va estetika kabi fanlar bilan, umuman insonning ongli va ongsiz madaniy va tabiiy xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan, *kulturologiya* umumiy nomi bilan birlashadigan fanlarning barchasi bilan yaqin aloqada bo'ladi.⁸ Sh. Safarov nutqiy muloqotni pragmatikada keng tarqalgan atama sifatida ta'riflaydi va buni nutq atamasining keng garqalgan ham lingvistik, ham nolingvistik ma'nosi, deb uqtiradi. Shuningdek, lisoniy vositalarning moddiy shaklda voqelanmagan muloqot turlari nutqsiz muloqot bo'lishini "Bahorning o'n yetti lahzasi" kinofilmidan Berlindagi "Esefan" qahfaxonasida sovet razvedkachisi Shtirlitsning - uni ko'rish uchun kelgan rafiqasi bilan so'zsiz - qahvaxonada tasodifan birga o'tirgan kimsalar sifatidagi muloqoti, uchrashuvini misol tariqasida keltiradi. Bu muloqot Shtirlits uchun ham, uning xotini uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchrashuv bo'lib, har ikkala tomonning sog'-salomat, bir-birini sog'inib qo'msayotganligi haqida axborot berishini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, bu axborot so'zsiz- lisoniy vositalarsiz berilgan qabul qilingan muloqot edi. "Muloqot" atamasi ko'p hollarda verbal, ya'ni so'z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so'zsiz, nolisoniy vositalar (imo- ishora, har xil belgi, nishona, ramz, simvollar) orqali axborot berish va bir-birining ta'siriga ko'ra verbal yoki noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi.

Shunday qilib, nutqiy muloqot deganda - muloqot jarayonida lisoniy va nolisoniy vositalarning birgalikda, hamkorlikda ishlatilishini tushunish lozim. Bu nutqiy muloqotning eng birinchi o'ziga xosligi hisoblanadi. Chunonchi, "Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakotuhu" verbal iborasi(lisoniy vosita)ni qo'llagan shaxs, albatta, shu verbal formulaga mos ma'naviy-madaniy saviyaga tegishli yoshga, nasl-nasabga, kiyim-boshga ega bo'lishi bilan birga, bu iborani maxsus imo-ishoralar bilan hamkorlikda va maxsus tinglovchilarga nisbatangina qo'llay oladi. "Bitta shakl aniq holatda bitta mazmunni ifodalaydi va bir mazmun faqat bitta muloqot tizimidagina qo'llanishi mumkin"⁹ – deydi Sh.Safarov. Muloqot jarayonida muloqotning boshqa komponentlari chunonchi, kiyinish, tana a'zolarining harakat-holati, imo-ishora bilan bir qatorda lisoniy ramzlar ham sof ramz sifatida qo'llanilishini, muloqot (lisoniy) paradigmaları misolida asoslab beradi: "So'zlovchi paradigmadan nutq sharoiti va maqsadga muvofiq'ini muloqot qolipi (steriotip) sifatida tanlaydi va qo'llaydi. Tinglovchi ham bu shtampni to'laligicha qabul qiladi".¹⁰ Olim tomonidan nutqiy muloqotning tarkibiy qismlariga ichki va tashqi omillar kiritilishi, chunonchi ichki omillarga – lisoniy(so'z, so'z birikmalari, undov va b) va nolisoniy(milliy-etnik vositalar, madaniy- etik vositalar. Ular ham o'ziga xos paradigmalarini tashkil etadi va o'z navbatida informatsion va ifoda ma'no kasb etadi) vositalar kiritilishi, tashqi omillarga esa muloqotning maqsadi, undagi tinglovchi va so'zlovchining maqsadi, muloqot voqelanayoggan shart-sharoit, vaziyat kabilarni kiritish mumkinligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar beriladi. Nolisoniy omilning kinetik ko'rinishi (milliy - etnik vositalar)ni so'zlovchi va tinglovchiga xos kiyinish, yasan-tusan qilish, bezaklar va lisoniy vositalardan

⁷ Сафаров Ш., Тоирова Г., Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. - Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2007. - 39 бет.

⁸ Сафаров Ш., Тоирова Г., Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. - Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2007. - 39 бет.

⁹ Ko'rsatilgan manba, 21-bet.

¹⁰ Ko'rsatilgan manba, 24-bet.



foydalanishi kabilar bilan ifodalash mumkin. Ular ham o'z navbatida o'z paradigmalariga ega va har bir paradigma o'ziga xos ahamiyat va qiymatga ega bo'ladi. Ta'kidlash joizki, muloqot jarayonida ichki omillar (lisoniy, kinetik va ularning ichki ko'rinishlari) bir-biri bilan muvofiqlashishi kerak. Olim aytmoqchi, vositalar uyg'unligi va ohangdorligi ta'minlanmasa, muloqot me'yoriy hisoblanmaydi. Bugungi kunga kelib, muloqotning tarkibiy qismlari, ulardagi birliklarning qo'llanilishidagi uygunlik va buzilish holatlari, bularning sabab va natijalari fanimizda o'z yechimini kutib turgan muammolardandir.

REFERENCES:

1. Mirziyoev Yangi Sh.M. O'zbekiston strategiyasi. –T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. –B.35
2. Nurmonov, Abduhamid.Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. O'quv qo'llanma, O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: Ta'lim, 2009. — 160 b.6-bet.
3. Сафаров Ш., Тоирова Г., Нутқнинг этносотионрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. - Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2007. - 39 бет.
4. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. -М., 1956. -С.65;
5. Аҳмедова Н. Ўзбек тили муружаат бирликлари. – Тошкент, 2009. – 92 б.
6. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри....дисс.автореф. -Тошкент: ЎзРФА ТАИ, 2000. - 47 б.;
7. Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан. д-ри....дисс. - Тошкент: ЎзРФА ТАИ,2001. -283 б.;
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. -91 б.
9. Umedilloevna, S. M. UDC: 1751 Lexicographic Analysis Of The Concise Oxford Dictionary Of Literary Terms By K. Boldik And Some Uzbek Literary Dictionaries. Scientific Reports Of Bukhara State University, 115. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=w-pR1LIAAAAJ&citation_for_view=w-pR1LIAAAAJ:kuK5TVdYjLIC
10. Umedilloevna, S. M., & Alisherovna, R. N. (2022). LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF THE ROUTLEDGE DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY PETER CHILDS AND ROGER FOWLER. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 672-675. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=w-pR1LIAAAAJ&citation_for_view=w-pR1LIAAAAJ:-FonjvnnhkoC
11. Umedilloevna, S. M. (2022, January). Peter Childs Va Rojer Faulerning Adabiyotshunoslik Terminlarining “the Routledge Dictionary of Literary Terms” Lug’atiga Izohlar. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 56-58). https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=w-pR1LIAAAAJ&citation_for_view=w-pR1LIAAAAJ:LI9QrySNdTsc

